



AGROSANOAT INTEGRATSIYASI VA AGROBIZNES

Aysachev Abdulfotix Abdulfazovich

“University of economics and pedagogy” NOTM

“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti hamda

*Kadrlar malakasini oshirish va
statistik tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi*

a.aysachev_89@mail.ru

Shukurova Durdona Rashid qizi

“University of economics and pedagogy” NOTM

“Buxgalteriya hisobi” yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada agrosanoat integratsiyasi va agrobiznes shular qatorida zamonaviy iqtisodiyotning asosiy tuzilmalari sifatida namoyon bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligi har qanday mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda agrar sohani modernizatsiya qilish, bozor mexanizmlarini joriy etish va agrobiznesni rivojlantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar agrar munosabatlarning mazmuni va shaklini o‘zgartirib, fermerlar va agrobiznes subyektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida agrar sohaning rivojlanishi alohida e‘tiborga ega.

Kalit so‘zlar: agrosanoat integratsiyasi, agrar munosabatlar, agrobiznes, modernizatsiya, qishloq xo‘jalik, fermer xo‘jalik, birja, qo‘shilgan qiymat, bozor munosabatlari, agronom, mehnat munosabatlari, mulkchilik, iqtisodiy faoliyat, agroplatforma.



АГРОПРОМЫШЛЕННАЯ ИНТЕГРАЦИЯ И АГРОБИЗНЕС

Айсачев Абдулфотих Абдулфаизович

«Университет экономики и педагогики» НВУЗ

доцент кафедры «Экономика»,

Независимый исследователь института повышения

квалификации и статистических исследований

a.aysachev_89@mail.ru

Шукурова Дурдона Рашидовна

«Университет экономики и педагогики» НВУЗ

Направление «Бухгалтерский учет» студент 1 курса

Аннотация

В этой статье агропромышленная интеграция и агробизнес рассматриваются среди них как основные структуры современной экономики. Сельское хозяйство считается одной из основных отраслей экономики любой страны. В Узбекистане осуществляются масштабные реформы в области модернизации аграрной сферы, внедрения рыночных механизмов и развития агробизнеса. Эти реформы меняют содержание и форму аграрных отношений, открывая новые возможности для фермеров и субъектов агробизнеса. В ходе проводимых в нашей стране реформ развитию аграрной сферы уделяется особое внимание.

Ключевые слова: агропромышленная интеграция, аграрные отношения, Агробизнес, модернизация, сельское хозяйство, сельское хозяйство, обмен, добавленная стоимость, рыночные отношения, агроном, трудовые отношения, собственность, хозяйственная деятельность, агроплатформа.



AGRO-INDUSTRIAL INTEGRATION AND AGRIBUSINESS

Aysachev Abdulfotikh Abdulfaizovich

“University of economics and pedagogy” NGHEO

Associate Professor of the Department of Economics

Independent researcher at the institute

for advanced training and statistical research

a.aysachev_89@mail.ru

Shukurova Durdona Rashidovna

“University of economics and pedagogy” NGHEO

The direction of “Accounting” is a 1st year student

Abstract

In this article, agro-industrial integration and agribusiness are considered among them as the main structures of the modern economy. Agriculture is considered one of the main economic sectors of any country. Uzbekistan is implementing large-scale reforms in the field of modernization of the agricultural sector, the introduction of market mechanisms and the development of agribusiness. These reforms are changing the content and form of agrarian relations, opening up new opportunities for farmers and agribusiness entities. During the ongoing reforms in our country, special attention is paid to the development of the agricultural sector.

Keywords: agro-industrial integration, agricultural relations, agribusiness, modernization, agriculture, agriculture, exchange, value added, market relations, agronomist, labor relations, property, economic activity, agro platform.



Kirish

Bugungi kunda agrosanoat kompleksining integratsiyalashuvi mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ichki va tashqi bozorlar ehtiyojini qondirish, zamonaviy texnologiyalar asosida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish kabi muhim yo'nalishlarda muhim rol o'ynaydi. Qishloq xo'jaligi va sanoat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ishlab chiqarish zanjirlarini barqaror va samarali qilish imkonini beradi. Bu integratsiya orqali eksport salohiyati oshadi, ish o'rinlari yaratiladi va mahalliy xomashyodan to'laqonli foydalanish ta'minlanadi.

Zamonamizda qishloq xo'jaligi va sanoat sektorlarining uzviy bog'liqligi va hamkorligini ta'minlash uchun agrosanoat integratsiyasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu soha rivojlanishining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Agrosanoat integratsiyasi — bu yer maydonlaridan boshlab, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, qadoqlash va bozorga chiqarishga qadar bo'lgan zanjirni uzviy bog'lab, ularning samaradorligini oshirish, qiymatni ko'paytirish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashga qaratilgan kompleks yondashuvdir. Bu jarayon nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarining integratsiyasini, balki ularning texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham bir-biriga muvofiqlashuvini taqozo etadi.

Agrosanoat integratsiyasining rivojlanishi tarixan 20-asrning boshlaridan boshlab, sanoatlashuv va texnologik yuksalish bilan chambarchas bog'liq bo'lib kelmoqda. Bu jarayonning asosiy maqsadi — qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bozor talablariga mos keladigan sifatli va raqobatbardosh mahsulotga aylantirilishi, shuningdek, post-harvest jarayonlaridagi yo'qotishlarni kamaytirishdir. Hozirgi vaqtda agrosanoat kompleksining tarkibi va strukturasini chuqur o'rganish, uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va yangi texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, mahalliy resurslarni samarali



foydalanish, infratuzilmani rivojlantirish va bozorlar bilan chambarchas bogʻlangan iqtisodiy modelni shakllantirishda muhim rol oʻynaydi.[1]

Asosiy qism

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri — qishloq xoʻjaligidir. U insonlarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlash, xom ashyo yetishtirish va mamlakat iqtisodiy xavfsizligini taʼminlashda katta ahamiyatga ega. Agrar munosabatlar va agrobiznes shular qatorida zamonaviy iqtisodiyotning asosiy tuzilmalari sifatida namoyon boʻladi. Qishloq xoʻjaligi har qanday mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Oʻzbekistonda agrar sohani modernizatsiya qilish, bozor mexanizmlarini joriy etish va agrobiznesni rivojlantirish borasida keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar agrar munosabatlarning mazmuni va shaklini oʻzgartirib, fermerlar va agrobiznes subyektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.[2]

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida agrar sohaning rivojlanishi alohida eʼtiborga ega. Qishloq xoʻjaligi iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri boʻlib, aholini oziq-ovqat bilan taʼminlash, ish oʻrinlari yaratish va eksport salohiyatini oshirishda muhim rol oʻynaydi. Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston Respublikasi agrar sektorini isloh qilish, yyer munosabatlarini liberallashtirish, fermer va dehqon xoʻjaliklarini rivojlantirish borasida keng koʻlamli ishlarni amalga oshirmoqda. Mazkur maqolada agrar munosabatlarning iqtisodiy mazmuni, agrobiznes tizimining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari, hamda ushbu sohadagi mavjud muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi.

Agrar munosabatlar — bu qishloq xoʻjaligi sohasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy munosabatlar majmuasidir. Ular yerga mulkchilik, mehnat munosabatlari, mahsulot taqsimoti va bozor munosabatlarini qamrab oladi.



So‘nggi yillarda O‘zbekistonda agrar sohada quyidagi yangiliklar kuzatildi:

Fermerlar erkinligi: Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 9 noyabrdagi bayonotiga ko‘ra, fermerlar viloyat ichida xohlagan klaster bilan shartnoma tuzish va ortiqcha hosilini birja orqali sotish huquqiga ega bo‘ldi. Bu fermerlar faoliyatida bozor mexanizmlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yerdan samarali foydalanish: 2023 yildan boshlab 70 mingdan ziyod fermerlarning 60 ming gektar bo‘sh dala chetlarida uzum, qovoq, qovun, tarvuz va sabzavot ekish bo‘yicha dastur qabul qilindi. Bu qo‘shimcha mahsulot yetishtirish va aholi bandligini oshirishga qaratilgan. Agrobiznes tushunchasi va Agrobiznesning iqtisodiyotdagi o‘rni, ahamiyati.

Agrobiznes — bu qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash, saqlash, tashish va sotish bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyatlar majmuasidir.

O‘zbekistonda agrobiznesni rivojlantirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

Agrosubsidiyalar: 2023 yilda Vazirlar Mahkamasining 331-son qarori bilan agrar va oziq-ovqat sohalarini subsidiyalash to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi. Bu tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash va sohadagi faoliyatni rag‘batlantirishga qaratilgan.[3]

Qo‘shilgan qiymat zanjiri: 2023 yilda agrar sohada yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish loyihalariga 1 milliard dollar ajratilishi belgilandi. Bu qayta ishlash, saqlash va logistika infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xalqaro hamkorlik: Osiyo taraqqiyot banki (OTB) O‘zbekistonda agrar sohani rivojlantirishga 130 million dollar yo‘naltirishini ma’lum qildi. Bu mablag‘lar qishloq xo‘jaligida qo‘shimcha qiymat zanjirini rivojlantirish va oziq-ovqat tizimining barqarorligini ta’minlashga qaratilgan. Agrobiznes — bu qishloq



xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash, saqlash, tashish va sotish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy faoliyatlar majmuasidir. U iqtisodiyotning turli sohalarini o‘z ichiga oladi: qishloq xo‘jaligi, sanoat, savdo va moliya xizmatlari.

Agrobiznes tuzilmasi:

Birinchi bosqich – resurs yetkazib beruvchilar (o‘g‘itlar, urug‘lar, texnika va boshqalar)

Ikkinchi bosqich – qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar (fermerlar, agrofimlar)

Uchinchi bosqich – qayta ishlovchi korxonalar

To‘rtinchi bosqich – tayyor mahsulotni bozorga chiqaruvchi savdo tashkilotlari. Agrar soxada davlat siyosatlari va qonunchilik yangiliklari

Agrar sohani rivojlantirishda davlatning roli muhim ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda quyidagi qonunchilik yangiliklari qabul qilindi:

Qishloq xo‘jaligi texnikalari: 2023 yil 29 martda qabul qilingan Prezident qaroriga muvofiq, O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi texnikalari xaridini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yagona tartibi joriy qilindi. Shuningdek, xorijdan olib kelinadigan texnikalar 2025 yil 1 yanvarga qadar bojxona to‘lovlaridan ozod qilindi.

Raqamli qishloq xo‘jaligi: 2023 yil 1 sentabrdan boshlab “Raqamli qishloq xo‘jaligi” yagona integratsion platformasi tarkibida “Agroplatforma” axborot tizimi joriy etildi. Bu tizim mahsulot yetishtiruvchilarning yagona reyestrini shakllantirish va ularga identifikatsion raqam berishni nazarda tutadi.

Mavsumiy agronomlar: 2023 yildan boshlab har bir tumanga 4 nafargacha, jami 672 nafar mavsumiy agronomlar biriktirilib, oylik ish haqi bilan ta‘minlanadi. Bu dehqonlarni dala chetlaridan samarali foydalanish va agrotexnik tadbirlarni



to'g'ri amalga oshirishga yordam beradi. O'zbekistanda Agrar sektordagi isloxotlar va Argobisnesni rivojlantirishdagi muammolar.

Agrobiznes har qanday mamlakat iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutadi. O'zbekiston misolida qaraydigan bo'lsak, aholining qariyb yarmi bevosita yoki bilvosita qishloq xo'jaligi sohasida band. Agrobiznes orqali:

- Oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanadi;
- Yangi ish o'rinlari yaratiladi;
- Eksport hajmi ortadi va valyuta tushumlari ko'payadi;
- Hududiy rivojlanish rag'batlantiriladi;
- Ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi.

Shuningdek, agrobiznes innovatsiyalarni jalb qilish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va raqamli texnologiyalarni jadal joriy etishda ham faol ishtirok etadi.

O'zbekiston agrar sektorida islohotlar va ularning natijalari

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda agrar sohada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Jumladan:

- Yer munosabatlari isloh qilindi va yyerlarni ijaraga berish tizimi joriy etildi;
- Fermer xo'jaliklari tashkil qilindi va ularning huquqlari mustahkamlandi;
- Agrosanoat klasterlari shakllantirildi va vertikal integratsiya kuchaydi;
- Subsidiyalar, kreditlar va grantlar ajratish tizimi yo'lga qo'yildi;
- Qishloq infratuzilmasi (yo'llar, elektr, suv, internet) rivojlantirildi.



Bu islohotlar natijasida agrar sohada ishlab chiqarish hajmi ortdi, eksport geografiyasi kengaydi, mahsulot sifati yaxshilandi. Ammo hali ham yyechimini kutayotgan masalalar mavjud.

Agrobiznesni rivojlantirishdagi muammolar va ularni hal qilish yo‘llari

Hozirgi kunda agrobiznesni rivojlantirishda quyidagi muammolar mavjud:

- Moliyaviy resurslarning yyetishmasligi;
- Qishloq xo‘jaligi texnikasining eskirganligi;
- Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarning amaliyotga sust tatbiq qilinishi;
- Logistika va infratuzilmaning rivojlanmaganligi;
- Mehnat resurslarining migratsiyasi.

Bu muammolarni hal qilish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish;
- Kredit va subsidiyalarni oshirish, sug‘urtani rivojlantirish;
- Ilmiy-innovatsion markazlarni yaratish;
- Agrobiznes sohasida kadrlar tayyorlashni kuchaytirish;
- Tashqi investitsiyalarni jalb qilish.

Xulosa qilib aytganda, agrobiznes va agrar munosabatlar bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi bo‘lib, ularni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshiradi. Mamlakatda olib borilayotgan islohotlar natijasida bu yo‘nalish ancha rivojlandi, biroq uni yanada kuchaytirish zarur.

Takliflar:



1. Agrobiznes subyektlari uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish;
2. Innovatsion texnologiyalarni joriy etishda davlat ko'magini kuchaytirish;
3. Raqamli xizmatlarni (agroplatformalar, onlayn savdo tizimi) rivojlantirish;
4. Qishloq joylarda yashash sharoitlarini yaxshilash va yoshlarga imtiyozlar yaratish.

O'zbekistonda agrar sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va davlat siyosatlari agrar munosabatlar va agrobiznesni rivojlantirishga qaratilgan. Fermerlar va agrobiznes subyektlari uchun yaratilgan yangi imkoniyatlar, subsidiyalar, raqamli texnologiyalar va xalqaro hamkorliklar sohaning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu islohotlar mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va aholi farovonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Iskandarov, A. B. (2020). Agrosanoat kompleksida integratsiya jarayonlarini rivojlantirish yo'nalishlari. O'zbekiston iqtisodiyotida innovatsiyalar va rivojlanish.
2. Sultonov, S. M. va Hamidov, M. T. (2019). Agrosanoat integratsiya va uning iqtisodiy ta'siri. Agriculture and Economics Journal.
3. Vazirlar Maxkamasining 331 sonli qarori. 2023-yil.
4. Qodirov, D. D. (2021). Agrosanoat kompleksining rivojlanishi va integratsiya muammolari. O'zbekiston agrar tarmoqlari.
5. Yusufjonov, S. X. va Azizov, J. J. (2018). Agrosanoat integratsiyasini boshqarish va innovatsiyalar. Toshkent: O'zbekiston davlat universiteti nashriyoti.
6. Abdullayev, M. M. (2022). Agrosanoat komplekslarining rivojlanishi va strategik istiqbollari. O'zbekiston iqtisodiyoti va boshqaruvi.



7. Ibroximov, M. (2019). "Fermer xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligini oshirish." Toshkent: O'zbekiston iqtisodiyoti va badiiy adabiyoti nashriyoti.
8. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. (2020). "Qishloq xo'jaligi va fermer xo'jaliklari statistikasi." Toshkent.
9. Mamatov, A. (2020). "Qishloq xo'jaligi sohasidagi innovatsiyalar." Toshkent: Davlat iqtisodiyoti nashriyoti.
10. Nurmatov, S. (2022). "Ekologik xavfsizlik va fermer xo'jaliklarida yangi texnologiyalar." Toshkent: Ekologiya va rivojlanish institutining nashriyoti.
11. Yuldashev, F. (2021). "Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish: Davlat siyosati va iqtisodiy yordam." Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
12. Айсачев, А. (2021). Статистический анализ экономического развития сельского хозяйства на региональном уровне. *Экономика и инновационные технологии*, (4), 197–208. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11938
13. AA Aysachev, M Xonboboyeva. Qishloq xo'jaligi maxsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda iqtisodiy samaradorlikka erishishning ba'zi masalalari. (2024). *International Conference on Modern Science and Scientific Studies*, 72-77. <https://econfseries.com/index.php/5/article/view/77>